

FUQAROLIK PROTSESSIDA PROKUROR ISHTIROKI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Aytimova Barshinay Mu'barrek qizi

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridika fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi
barshinay16a@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20424522>

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki masalasi milliy va xorijiy qonunchilik tajribasi asosida tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksi, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun hamda MDH davlatlari qonunchiligi qiyosiy o'rganilgan. Prokurorda fuqarolik protsessida ishtirok etishning asosiy shakllari, da'vo qo'zg'atish va protest keltirish vakolatlari, shuningdek amaldagi normalarni takomillashtirish bo'yicha taklif va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: prokuror, fuqarolik protsessi, da'vo ariza, protest, apellyatsiya, kassatsiya, xorijiy tajriba, protsessual vakolat, odil sudlov.

Kirish. Huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida fuqarolar huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish muammosi amaliy va ilmiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki bu nafaqat qonuniyligni ta'minlash vositasi, balki ijtimoiy zaif toifadagi shaxslarning, davlat va jamiyat manfaatlarining sud orqali himoya qilinishini kafolatlovchi muhim institutdir. O'zbekiston Respublikasida 2021 yilda Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar prokurorning fuqarolik sudida ishtirok etishi masalasini tubdan qayta tartibga soldi. Mazkur islohot instituting mazmunini chuqurroq anglash, uning xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy o'rganilishi yangi normalarni amaliyotda to'g'ri qo'llash uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Maqolaning maqsadi – fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki institutini milliy qonunchilik va xorijiy davlatlar tajribasi asosida qiyosiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXV bobi prokuraturaga O'zbekiston hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qilish vakolatini bergan. «Prokuratura to'g'risida»gi qonunga muvofiq, prokuror fuqarolik protsessida ikki asosiy shaklda ishtirok etadi: birinchidan, da'vo qo'zg'atish yo'li bilan ish boshlash; ikkinchidan, manfaatdor shaxs tomonidan boshlangan ishga protsessning har qanday bosqichida kirish. Bu ikki shakl protsessual faollikning turli darajalarini aks ettiradi va bir-birini to'ldiradi. Yu.f.d. M.M. Mamasiddiqov ta'kidlashicha, prokuror fuqarolik ishlarining ko'rilishida o'z vakolatini to'rt usulda amalga oshiradi: sudga ariza bilan murojaat etish; qo'zg'atilgan ishni ko'rishda boshidan ishtirok etish; apellyatsiya va kassatsiya protestlarini keltirish; shuningdek, qonuniy kuchga kirgan qarorlar ustidan taftish protesti keltirish. Ushbu to'rt usulning mavjudligi prokurorning protsessual faoliyatini kompleks holda qamrab oladi.

2021 yil 12 yanvardagi O'RQ-661-son Qonun bilan FPKga kiritilgan muhim yangiliklar qatorida: sud ishlarini nazorat tartibida ko'rish institutining tugatilishi, prokurorning boshqa shaxslar arizalari bilan qo'zg'atilgan ishning muhokamasida o'z tashabbusi bilan ishtirok eta olmasligi, shuningdek, prokuror tomonidan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha

qayta ko'rish haqida ariza berilmasligi belgilandi. ¹Mazkur o'zgartirishlar prokurorning protsessual vakolatlarini aniqlashtirish va unifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Prokurorning ishtirokiga bag'ishlangan protsessual hujjatlar ro'yxatiga prokuror arizasi, prokuror fikri, prokuror xulosasi, prokuror protesti va prokuror taqdimnomasi kiradi. Har birining o'ziga xos huquqiy tabiati va qo'llanish sohasiga ega ekanligi prokurorning protsessual faoliyatining mazmunini boyitadi.

MDH davlatlari qonunchiligi tahlili prokurorning fuqarolik protsessidagi o'rnini belgilashda turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Eng muhim farq prokuror da'vo arizasi berishning shartlari va chegaralarida namoyon bo'ladi. Rossiya Federatsiyasi GPKning 45-moddasiga ko'ra, fuqaro sog'lig'i, yoshi, muomalaga layoqatsizligi va boshqa uzrli sabablarga ko'ra sudga o'zi shaxsan murojaat qila olmasagina prokuror ariza taqdim etishi mumkin. Rossiyalik huquqshunoslar ta'kidlashicha, uzrli sabablarning FPKda yopiq ro'yxatining belgilanganligi emas, balki ularni baholash huquqining sudlarga berilganligi prokurorning vakolatlarini maqsadga muvofiq cheklaydi.²Belarus Respublikasi GPKning 81-moddasida ham o'xshash yondashuv mustahkamlangan: prokuror faqat Belarus Respublikasini, uning ma'muriy-hududiy birligini, shuningdek yuridik shaxslar va fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish zarur bo'lgan hollarda ariza bilan murojaat qilishga haqli. Moldova Respublikasi FPKning 71-moddasida prokuror tomonidan qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan fuqarolik ishlarining aniq ro'yxati belgilangan bo'lib, u asosan davlat manfaatlarini himoya qiluvchi ishlarni qamrab oladi: budjetni shakllantirish va ijro etish, davlat egaligidagi mulkni himoya qilish, davlat manfaatlarini cheklashga qaratilgan shartnomalarni bekor qilish, shuningdek atrof-tabiiy muhitni muhofaza etish kabi masalalar. Bunday cheklangan ro'yxat prokurorning fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarga imkon darajasida aralashmasligini ta'minlaydi.

O'zbekiston qonunchiligi esa yuqoridagi davlatlardan farqli ravishda «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda fuqaroning sog'lig'i, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquqlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan hollardagina prokurorning da'vo taqdim etishi mumkinligini belgilaydi. Bu qoida FPK matnida yanada aniqlanishi lozim bo'lgan me'yor sifatida qonunchilik literaturasida keltirib o'tiladi. Yuqoridagi qiyosiy tahlil bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, prokurorning fuqarolik protsessidagi vakolatlarini belgilashda ikki asosiy yondashuv mavjud: vakolatlarni keng qoldirish va ularni qat'iy cheklash. Ikkinchi yondashuv fuqarolik protsessining tortishuv tabiatiga ko'proq mos keladi. Ikkinchidan, rossiyalik huquqshunos V.N. Argunov prokuror har doim fuqarolik ishini qo'zg'atish huquqiga ega bo'lishi lozimligi va bu prokuror vakolatining ajralmas elementi ekanligini ta'kidlasa ham, mamlakatimiz qonunchiligi va xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, vakolatlarni belgilashning aniq chegaralarni sudda ishga daxldor bo'lmagan torafni almashtirish va taraflar erkin huquq prinsiplarining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar maqsadga muvofiq ko'rinadi: Moldova tajribasini inobatga olgan holda O'zbekiston FPKiga prokuror tomonidan qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan fuqarolik ishlarining aniq ro'yxatini kiritish; fuqaroning sudga o'zi murojaat qila olmasligini

¹ "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.2001 yildagi 257-II-son.

² Гражданский процесс. Учебник и практикум для академического бакалавриата. //А.А. Власов. - М.: Юрайт, 2019.470 с.

tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilish talabini FPK darajasida mustahkamlash; prokuror vakolati yuqori instansiyalarda amalga oshirilishida viloyat prokurorlari vakolat chegaralarini yanada aniqlashtirish. Fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki instituti O'zbekiston qonunchiligi va xorijiy tajribada turlicha tartibga solingan. Milliy qonunchilikda 2021 yildagi islohotlar bu institutni ancha takomillashtirgan bo'lsa-da, MDH davlatlari va G'arb qonunchiligi tajribasi prokurorning protsessual vakolatlarini yanada aniqlashtirish va cheklashning ilmiy asoslarini ko'rsatadi. O'zbekiston FPKiga prokuror qo'zg'atishi mumkin bo'lgan ishlarning aniq ro'yxatini kiritish, ayniqsa davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qiluvchi ishlar bilan bog'liq sohalarni belgilash lozim. Bunday yondashuv, Moldova tajribasi ko'rsatganidek, prokurorning xususiy huquqiy munosabatlarga keraksiz aralashuvini oldini oladi va fuqarolik protsessining tortishuv tamoyilini mustahkamlaydi. Prokuratura organlarining fuqarolik sud ishlarini yuritishdagi faoliyati pirovardida odil sudlovni ta'minlash, fuqarolar va davlat manfaatlarining himoyasiga xizmat qilishi kerak. Shu maqsadda prokurorning protsessual maqomini qonunda aniq belgilash va uning vakolatlarini doimiy ravishda takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy vazifadir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. – Toshkent, 2018 (2021 yil o'zgartirishlari bilan).
2. "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.2001 yildagi 257-II-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6034-sonli Farmoni.
4. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2020. – 512 b.
5. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta'minlash masalalari. – Toshkent: Bosh prokuratura Akademiyasi, 2019. – 256 b.
6. Гражданский процесс. Учебник и практикум для академического бакалавриата. //А.А. Власов. - М.: Юрайт, 2019.470 с.